


PADLET PLATFORMASI

[Platforma asoschisi] AQSHlik Nitesh Goel



Padlet ko'p funksiyali interfaol resurslarni ulashish uchun foydalaniladigan onlayn doska hisoblanadi. Ushbu platformasi 2012-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim beruvchilar dars jarayonida yoki onlayn, mustaqil, masofaviy kabi ta'lim turlarida ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda ishlash, bilimlarni sinash uchun viktorinalar o'tkazish, mavzuga oid izohlar olish, turli xil multimedia vositalarini (audio, video, rasm, taqdimot, ta'lim o'yini, virtual laboratoriya va boshqa raqamli ta'lim resurslarini) ulashish, biron bir topshiriqni bajarish va shu kabi boshqa ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi.




[Padlet platformasidagi turli xil soha va yo'nalishlar uchun yaratilgan tayyor shablon turlari]


Shuningdek, Padlet platformasida turli xil soha va yo'nalishlarga oid tayyor shablonlar taqdim etiladi. Bunda biron bir shablonni tanlash orqali fan yoki mavzuning mazmuniga moslashtirib olish mumkin.

Padlet platformasining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Foydalanuvchilar tasvir, audio va videolarni o'z ichiga olgan turli xil ta'lim resurslarini almashishlari mumkin;



- Ta'lim beruvchi va oluvchilar o'zaro hamkorlikda ishlashlari uchun vizual va interfaol muhitni taklif etadi;
- Yagona Padlet oynasining o'zida bir nechta elementlarni joylash;
- Turli xil formatdagi materiallarni Padlet ichida yuklash va ko'rish imkonini taqdim etadi, ya'ni biron bir taqdimot yoki raqamli ta'lim resursini ko'chirib olmasdan platformani o'zida tanishish mumkin. Bunda platformaga yuklanadigan har bir ta'lim resursining hajmi 250 mbdan oshmasligi kerak.



[Ushbu keltirilgan formatlarda fayllarni joylash mumkin]

Shu bilan birga, Padlet platformasi Canva, Phet, Wordwall, LearningApps va boshqa shu kabi pedagogik dasturiy vositalar yordamida yaratilgan interfaol ta'lim resurslarini ham joylash imkonini taqdim etib, Moodle singari ochiq manbali ta'limni boshqarish tizimlariga integratsiya bo'la oladi.



**Padlet platformasidan foydalanish bo'yicha video
qo'llanma:**

@Raqamlisavodxonlik youtube kanali

